

MATEMATIKA

IDC



**YOSH
IQTIDOR**

3

qism

**EGALARI
UCHUN**

**YANGI
NASHR**

PREZIDENT, AL-XORAZMIY VA IXTISOSLASHTIRILGAN
MAKTABLARGA TAYYORGARLIK KO'RAYOTGANLAR UCHUN

G'afforov Sardor
Mirzayev Nodir
Butayev Abror
Jumanazarov Xoshim

MATEMATIKA

III qism

Qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashr

Toshkent-2024

Mundarija

1.	Murakkab shakllarning perimetri va yuzi	5
2.	To'g'ri burchakli parallelepiped va kub(1-qism)	26
3.	To'g'ri burchakli parallelepiped va kub(2-qism).	34
4.	O'nli kasrlar va ularni taqqoslash	47
5.	O'nli kasrlarni qo'shish, ayirish va ularni yaxlitlash.	58
6.	Har xil maxrajli kasrlarni qo'shish va ayirish	66
7.	Qism topishga doir masalalar(2-qism)	73
8.	Foiz(2-qism).	83
9.	O'rta arifmetik qiymat	89
10.	To'plamlar va Venn diagrammasi	97
11.	Sanashga doir masalalar	110
12.	Kombinatorika(1-qism)	126
13.	Kombinatorika(2-qism)	139
14.	Sonlar o'qi	147
15.	Koordinata o'qlari	159
16.	Grafiklar	176
17.	Jadvallar	199
18.	Diagrammalar	214
19.	Harakatga doir masalalar	235
20.	Sonlarga doir masalalar	246

Quyidagi QR kod orqali “Yosh iqtidor” telegram botimizga ulanib, mavzulardagi misol va masalalarning javoblarini olishingiz mumkin.



Kitoblarimizga buyurtma berish uchun quyidagilarga murojaat qiling:




(99) 968 44 00



@IDC_books


1. MURAKKAB SHAKLLARNING PERIMETRI VA YUZI

- 26 To'g'ri to'rtburchak 4 ta kvadratdan tashkil topgan (rasmga qarang). Agar eng katta kvadratning tomoni 12 cm bo'lsa, bo'yalgan soha yuzini toping (cm^2).




27-33 Mashqlarda shakllar va ularning yuzi berilgan. Noma'lum x ni toping.


27 $S = 60\text{ cm}^2$




28 $S = 173\text{ dm}^2$




29 $S = 139\text{ cm}^2$




30 $S = 94\text{ cm}^2$




31 $S = 173\text{ cm}^2$



32 $S = 114\text{ cm}^2$




33 $S = 96\text{ dm}^2$




1. MURAKKAB SHAKLLARNING PERIMETRI VA YUZI


- 51 Imron bir xil o'lchamdagi qizil va ko'k rangli to'g'ri to'rtburchaklardan katta to'g'ri to'rtburchak yasadi. Agar katta to'g'ri to'rtburchakning eni 27 cm bo'lsa, bo'yini toping?



- 52 Quyidagi berilgan shakl bir xil o'lchamli to'g'ri to'rtburchaklardan tashkil topgan. Agar uning yuzi 32 cm^2 bo'lsa, perimetrini toping.




- 53 (*) Quyidagi rasmda 4 ta turli tomonli kvadratlar berilgan bo'lib, EF kesma uzunligi 13 cm , KN kesma uzunligi 7 cm , HJ kesma uzunligi 8 cm . Shunga ko'ra, BC kesma uzunligini toping.




3. TO'G'RI BURCHAKLI PARALLELEPIPED VA KUB(2-QISM).


- 9 Rasmda berilgan akvariumda necha litr suv bor?



- 10 Akvarium to'g'ri burchakli parallelepiped shaklida bo'lib, uning eni va bo'yi mos ravishda 60 cm va 20 cm. Akvariumdagi suvning sathi akvariumning yuqori yog'idan 20 cm pastda joylashgan. Agar akvarium balandligi 70 cm bo'lsa, unda necha litr suv bor?



- 11 To'g'ri burchakli parallelepiped asosining yuzi 12 cm^2 va balandligi 50 cm. Parallelepipedning hajmini toping.
- 12 Xona to'g'ri burchakli parallelepiped shaklida bo'lib, polning yuzi 20 m^2 . Agar xonaning balandligi 3 m bo'lsa, xona hajmini toping.
- 13 Berilgan akvariumdagi suvning hajmi 18 litr bo'lsa, suv sathinining balandligini toping.




4. O'NLI KASRLAR VA ULARNI TAQQOSLASH


- 63 Quyida berilgan rasmda Nodirning qulfi berilgan. Agar siz qulfga o'nli kasrni yozsangiz va yozilgan o'nli kasrning verguldan keyingi raqamlari yig'indisi verguldan oldingi raqamlari yig'indisiga teng bo'lsa, qulf ochiladi. Rasmdagi holatga ko'ra qulf ochilishi uchun berilgan sonning yuzdan birlar xonasidagi raqami qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlari yig'indisini toping.



- 64 Quyidagi rasmda har bir idishdagi suv miqdori berilgan. Ikkinchi idishdagi suv birinchi idishdagi suv bilan to'ldirilgandan so'ng, qolgan barcha suv uchinchi idishga quyildi. Agar har bir idishning hajmi 0,2 litr bo'lsa, uchinchi idishning qanday qismi suv bilan to'lmay qoladi? Javobingizni o'nli kasr ko'rinishida yozing.



- 65 30 litrli idishdagi barcha suv 100 ta bir xil stakanga teng miqdorda taqsimlandi. Har bir stakandagi suv miqdori necha litr? Javobingizni o'nli kasr ko'rinishida yozing.




5. O'NLI KASRLARNI QO'SHISH, AYIRISH VA ULARNI YAXLITLASH

- 35** Uchburchakning bir tomoni 83,6 cm, ikkinchi tomoni birinchisidan 14,8 cm, uchinchi ikkinchisidan esa 8,6 cm ortiq. Uchburchakning perimetrini toping.
- 36** Yugurish musobaqasida 3 nafar ishtirokchi qatnashmoqda.




Feruza marraga Laylodan 4,3 soniya, Akmaldan esa 8,8 soniya keyin keldi. Agar Akmal marraga 73,9 soniyada kelgan bo'lsa, Laylo marraga necha soniyada kelgan?

- 37** Bir to'p gazlamadan birinchi kuni 13,2 m, ikkinchi kuni 24,3 m, uchinchi kuni esa 18,8 m sotildi. Shunda, 3,7 m gazlama sotilmay qoldi. To'pda necha metr gazlama bo'lgan?
- 38** To'rtta sonning yig'indisi 32,1 ga teng. Ikkinchi son 8,5 ga teng va u birinchi sondan 4,3 ga, uchinchi sondan esa 0,7 ga ortiq. To'rtinchi sonni toping.
- 39** Shkaf ikkita bir xil o'lchamdagi ko'k va sariq rangli, suriladigan eshikdan iborat. Sariq eshikni 9,15 cm chapga sursak, ko'k eshikni ko'rinadigan qismining uzunligi 40,9 cm ga teng bo'ladi.



Agar sariq eshikni surmasdan ko'k eshikni 18,08 cm o'ngga sursak, ko'k eshikni ko'rinadigan qismining uzunligi necha cm ga teng bo'ladi?




6. HAR XIL MAXRAJLI KASRLARNI QO'SHISH VA AYIRISH

- 29 Salim shanba kuni berilgan uyga vazifaning $\frac{7}{18}$ qismini bajardi. Agar Salim yakshanba kuni uyga vazifaning $\frac{5}{27}$ qismini bajargan bo'lsa, ikki kun davomida uyga vazifaning qanday qismi bajarilgan?



- 30 Nodir va Nozim birgalikda yerni shudgor qilishyapti. Nodir butun yerning $\frac{5}{12}$ qismini, Nozim esa $\frac{2}{15}$ qismini shudgor qildi. Natijada, yerning qanday qismi shudgor qilinmay qoldi?
- 31 AB kesmada C nuqta berilgan. AB kesmaning uzunligi $12\frac{7}{8}$ cm. Agar AC kesmaning uzunligi $7\frac{5}{6}$ cm bo'lsa, BC kesmaning uzunligini toping.



32-33 Qulay usul bilan hisoblang.

32 $7\frac{8}{13} + 5\frac{1}{7} - 2\frac{1}{7} + 8\frac{5}{13}$

33 $21\frac{3}{22} + 11\frac{7}{16} + 19\frac{3}{22} + 12\frac{9}{16}$

- 34 Quyida berilgan aralash sonlardan qaysi biri 5 ga eng yaqin? $4\frac{7}{8}$; $5\frac{1}{6}$; $5\frac{2}{3}$

- 35 $2 < \frac{x}{11} < 3$ tengsizlik to'g'ri bo'ladigan x ning nechta natural qiymati bor?


7. QISM TOPISHGA DOIR MASALALAR(2-QISM)

Mavzuga doir testlar:

- 1 Imtihonda qatnashgan o'quvchilarning $\frac{3}{8}$ qismi 70% dan yuqori, $\frac{7}{16}$ qismi 70% past natijaga erishishdi. Agar o'quvchilarning 9 tasi 70% natija ko'rsatgan bo'lsa, imtihonda nechta o'quvchi qatnashgan?
A) 16 B) 32 C) 48 D) 72

- 2 Sayyoh jami yo'lni uch kunda bosib o'tmoqchi. Birinchi kuni $\frac{2}{7}$ qismini, ikkinchi kuni esa $\frac{4}{7}$ qismini o'tdi. Shu ikki kunda u 84 km yo'l bosgan bo'lsa, u yana necha kilometr yo'l yurishi kerak?
A) 12 km B) 14 km C) 20 km D) 24 km

- 3 Quyida berilgan shaklning qanday qismi bo'yalgan(shakldagi kichik to'g'ri to'rtburchakning har biri tomoni teng bo'lgan kvadratlar)?



- A) $\frac{1}{3}$ B) $\frac{2}{5}$ C) $\frac{3}{10}$ D) $\frac{7}{15}$

- 4 Nodirdagi pulning $\frac{1}{4}$ qismi, Hoshimdagi pulning $\frac{1}{3}$ qismiga teng. Agar ikkala bolada umumiy 84000 so'm pul bo'lsa, ularning pullari miqdori bir xil bo'lishi uchun Nodir Hoshimga qancha pul berishi kerak?
A) 6000 so'm B) 8000 so'm C) 12000 so'm D) 4000 so'm

- 5 Husanning dadasi ziyofatga ikkita bir xil o'lcham va og'irlikka ega bo'lgan tort olib keldi. Birinchi tort teng uch bo'lakka, ikkinchi tort teng to'rt bo'lakka bo'lindi. Husan birinchi tortdan 1 ta bo'lakni, ikkinchi tortdan 2 ta bo'lakni yedi. Husan dadasi olib kelgan tortlarning qanday qismini yegan?
A) $\frac{5}{6}$ B) $\frac{5}{12}$ C) $\frac{2}{3}$ D) $\frac{1}{4}$

8. FOIZ(2-QISM)


Mavzuga doir testlar:

- 1 13 kg rux, 21 kg mis va 16 kg qalay aralashtirildi. Aralashmadagi misning foiz miqdori ruxning foiz miqdoridan qancha ko'p?
A) 8% B) 24% C) 18% D) 16%

- 2 N shahardan M shaharga qarab yo'lga chiqqan mashina yo'lning 67% ni bosib o'tdi. Quyida har bir kichik kesma uzunliklari teng bo'lsa, mashina hozir qayerda?




- A) A va B orasida B) B va C orasida
C) C va D orasida D) D va E orasida
- 3 Do'konga olib kelingan olmalarning 15%i sotilgandan keyin 51 kg olma qoldi. Do'konda necha kg olma bo'lgan?
A) 54 kg B) 60 kg C) 72 kg D) 66 kg
- 4 Agar Ali o'z pulining 20%ini Valiga bersa, ularning pullari teng bo'ladi. Valining 600\$ puli bo'lsa, Alida qancha pul bor?
A) 750\$ B) 900\$ C) 1000\$ D) 1200\$
- 5 Tikuvchi matoning 20% ini kesib olganida, bu matoning o'rtasi 2 metrga siljidi. Dastlabki matoning uzunligini toping.
A) 10 m B) 40 m C) 20 m D) 25 m
- 6 Qo'g'oshin va misdan iborat aralashmaning 60%ini mis tashkil etadi. Agar mis qo'rg'oshindan 6 kg ko'p bo'lsa, aralashmaning og'irligini toping.
A) 25 kg B) 30 kg C) 40 kg D) 45 kg
- 7 625 gramm bo'lgan aralashmada suv va spirt bor. Bu aralashmaning 16%i spirtidan iborat. Aralashmaga necha gramm suv quyilsa, hosil bo'lgan aralashmada 10% spirt bo'ladi?



- A) 375 B) 250 C) 325 D) 450


10. TO'PLAMLAR VA VENN DIAGRAMMASI

- 14 Sherzod, Abror va Ramazon o'zlarining yoqtirgan mevalari bo'yicha suhbatlashishdi. Kinga qaysi mevalar yoqishi haqida aniqlangan ma'lumotlar quyida berilgan Venn diagrammasida tasvirlangan.




- Quyida berilgan ma'lumotlardan qaysilari to'g'ri?
 a) Abror Sherzoddan ko'ra ko'proq mevani yoqtiradi;
 b) Faqat bir kishi yoqtiradigan mevalar soni 3 ta;
 c) Faqat ikki kishi yoqtiradigan mevalar soni 5 ta;
 d) Ananas va gilosi yoqtiradiganlar soni teng.

- 15 1 dan 30 gacha bo'lgan natural sonlar 2 ga, 3 ga va 5 ga bo'linishidan kelib chiqib, Venn diagrammasiga joylashtirildi. $x + y + z$ ning qiymatini toping.




11. SANASHGA DOIR MASALALAR


- 22 (*) A nuqtada joylashgan chigirtka faqat ko'rsatilgan yo'nalishlarda harakatlanib, B nuqtaga borishni xohlaydi. U B nuqtaga necha xil usulda borishi mumkin?




- 23 (*) A nuqtada joylashgan sichqoncha berilgan yo'llar orqali B nuqtadagi pishloqqa borishni xohlaydi. U buni ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'ylab harakatlanib, necha xil usulda borishi mumkin?



- 24 (*) Quyidagi rasmda 1 dan 7 gacha raqamlangan yettita xona bor va bunda har bir xonadan o'zining qo'shni xonalariga o'tish mumkin. 1 raqamli xonadan boshlab, 7 raqamli xonaga bormoqchimiz. Agar faqat o'zimiz turgan xonaning raqamidan kattaroq raqamli xonaga yura olsak, manzilga boruvchi nechta yo'l mavjud?




- 8 Oshxonada qalampir, tuz hamda ziravorlar solingan bir nechta idishlar bor. Xadicha buvi ovqat tayyorlashi uchun 1 ta idish qalampir, 1 ta idish tuz hamda 1 ta idish ziravorlarni tanlab olishi kerak. U buni necha xil usulda qila oladi?



- 9 Sardorning bir nechta turdagi bosh kiyimlari, ko'ylaklari va shimlari bor(rasmga qarang). U necha xil usulda bittadan ko'ylak, shim va bosh kiyim kiya oladi?



- 10 Quyidagi rasmda bir nechta xil shakllar berilgan.



- a) Bu shakllar orasidan 1 ta yashil, 1 ta ko'k, 1 ta sariq va 1 ta qizil rangli 4 ta shaklni necha xil usulda tanlasa bo'ladi?
 b) Bu shakllar orasidan 1 ta uchburchak, 1 ta kvadrat, 1 ta aylana va 1 ta oltiburchakdan iborat 4 ta shaklni necha xil usulda tanlasa bo'ladi?
- 11 Do'konda 12 xil ko'ylak, 2 xil shim va 3 xil galstuk sotilmoqda. Ko'ylak, shim va galstukdan iborat uchlikni (to'plamni) necha xil usul bilan sotib olsa bo'ladi?
- 12 Do'konda 6 xil turdagi olma, 5 xil turdagi uzum va 4 xil turdagi nok bor. Ularning har biridan 1 kilogrammdan jami 3 kilogramm mevani necha usulda xarid qilish mumkin?
- 13 Sarvar quyida berilgan masalliq turlarining har biridan bittadan olib, necha xil usulda "XOTDOG" tayyorlashi mumkin?



13. KOMBINATORIKA(2-QISM)

- 12 2 ta qizil, 3 ta oq va 2 ta ko'k ko'ylakni kiyim javoniga 1 qatorga necha xil usulda joylashtirish mumkin?



- 13 "Bobom" so'zida harflar o'rnini almashtirib, necha xil so'z hosil qilish mumkin?
14 "Alloma" so'zida harflar o'rnini almashtirib, necha xil so'z hosil qilish mumkin?
15 34005 sonning raqamlari o'rinlarini almashtirib, jami nechta har xil 5 xonali son hosil qilish mumkin?
16 35115 sonning raqamlari o'rinlarini almashtirib, jami nechta har xil 5 xonali son hosil qilish mumkin?
17 (*) Kalkulyatorda 9 raqamli tugma buzilib qolgan. Qayumxo'ja bu kalkulyatorda 6 ta raqamni bosib, ekranda 1234 sonini necha xil usulda hosil qila oladi?

18-21 A'zam 4, 5, 6, 7, 8 raqamlaridan foydalanib, barcha 3 xonali sonlarni tuzib chiqdi.

- 18 Bu sonlarning nechtasida 5 raqami ishtirok etmagan?
19 (*) Bu sonlarning nechtasida 4 raqami ishtirok etgan?
20 Bu sonlarning nechtasi juft son?
21 Bu sonlarning nechtasi 5 ga karrali?
22 (*) Nodirning dushanba kungi dars jadvalida rasmda berilgan fanlar bor. Nodir geografiyadan vazifani bajarib bo'lgan. Endi qolgan fanlardan vazifalarni bajarishi kerak. Nodir algebra va geometriyadan vazifalarni ketma-ket bajarishni va biologiya fanidan vazifani fizika fani vazifasidan oldin bajarishni xohlaydi. Nodir vazifalarni o'zi istaganday necha xil usulda bajara oladi?


Dushanba:

1. Biologiya
2. Algebra
3. Geografiya
4. Fizika
5. Geometriya

14. SONLAR O'QI

Mavzuga doir testlar:

- 1) Quyida berilgan nuqtalardan qaysi biri $\frac{2}{3}$ ni ifodalaydi?




- 2) Quyidagi son o'qida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, AB kesmaning o'rtasi X bo'lsa, AX kesma o'rtasining koordinatasini toping.



- A) 2,2 B) 2 C) 2,8 D) 2,6

- 3) Quyidagi rasmda berilgan ma'lumotlardan foydalanib, XY kesma uzunligini toping.




- A) 240 cm B) 360 cm C) 400 cm D) 280 cm

- 4) Sonlar o'qida A , B va C nuqtalar ko'rsatilgan tartibda turibdi. B nuqta AC kesmani A uchidan boshlab 1:3 nisbatda bo'laklarga bo'ldi. A va C nuqtalarning koordinatalari nisbati esa 1:2 ga teng. Agar B nuqtaning koordinatasi 20 bo'lsa, C nuqtaning koordinatasini roping.



- A) 30 B) 32 C) 36 D) 35


- 5) Quyida berilgan son o'qiga ko'ra, C nuqta A va B nuqtalar o'rtasida joylashgan. A va B nuqtalarning koordinatalari nisbati 1:2 ga teng. Agar C nuqtaning koordinatasi 24 bo'lsa, B nuqtaning koordinatasini toping.



- A) 16 B) 32 C) 36 D) 48

15. KOORDINATA O'QLARI


- 12 A(6;3) nuqtaning berilgan to'g'ri chiziqqa nisbatan simmetrik nuqtasining koordinatasini toping.




- 13 Uchlari A(3;2) va B(11; 6) nuqtalarda bo'lgan kesmaning o'rtasining koordinatasini toping.

- 14 Koordinatalar tekisligida A, B va C nuqtalar berilgan. Bunda C nuqtaning koordinatasi (4;6), B nuqtaning koordinatasi esa (3;2). Agar C nuqta AB kesmaning o'rtasi bo'lsa, A nuqtaning koordinatasini toping.

- 15 Quyidagi kvadrat yuzini toping.




- 16 To'g'ri to'rtburchakning tomonlari koordinata o'qlariga parallel. Agar uning A uchining kordinatasi (2;2), B uchining koordinatasi (2;5) va C uchining koordinatasi (7;5) bo'lsa, D uchining koordinatasini toping.




- 17 To'g'ri to'rtburchakning tomonlari koordinata o'qlariga parallel. Uning A uchining koordinatasi (4;3), B uchining koordinatasi (10;3) va C uchining koordinatasi (10; 8). To'g'ri to'rtburchak yuzini toping.

16. GRAFIKLAR


- 22] Quyidagi grafikda bir xil ishni bajaruvchi A va B ishchilar bajargan ish hajmi va ularga mos vaqtlar berilgan. Agar bu ishni A va B ishchilar birgalikda bir vaqtda bajarishni boshlasa, qancha vaqtdan keyin ish yakuniga yetadi?



- 23] A krandan 4 soatda 28 litr suv oqadi. Quyida berilgan grafikda A va B kranlarning birgalikda ishlagan vaqti va umumiy necha litr suv quyilgani haqida ma'lumot berilgan. Agar boshqa idishning suv sig'imi 70 litr bo'lsa va hozir unda 10 litr suv bo'lsa, B kraning o'zi bu idishni qancha vaqtda to'ldiradi?




- 24] Quyidagi grafikda vaqt o'tishi bilan idishdagi suv miqdorining o'zgarishi ko'rsatilgan. Idishda 104 litr suv bor bo'lib, bu idishda A va B jo'mraklardan suv chiqib ketadi. Dastlab, faqat A jo'mrak ochildi va 3 soatdan so'ng B jo'mrak ham A jo'mrak bilan birgalikda 4 soat ishladi. Shundan so'ng, A jo'mrak yopildi va faqatgina B jo'mrakning o'zi idishni bo'shatib qo'ydi. Idishda 60 litr suv bor vaqtda faqat B jo'mrakning o'zi barcha suvni qancha vaqta chiqarib yuboradi?



18. DIAGRAMMALAR


- 15 “IDC” matematika olimpiadasida 4 ta o‘quvchi ishtirok etdi. Jadvalda ularning natijasini ko‘rish mumkin. Sardor o‘quvchilarning natijalarini doiraviy diagramma ko‘rinishida ham tasvirladi va rasmdagi diagramma hosil bo‘ldi. Agar u diagrammaga bir kishining natijasini kiritishni unutgan bo‘lsa, kimning natijasini kiritmagan?

Nodir	Sardor	Asadbek	Hoshim
100	75	50	45




- 16 Nozim 4 ta fandan uchinchi chorak uchun imtihon topshirdi. Quyida berilgan jadvalda uning fanlardan olgan ballarini ko‘rish mumkin. Nozim o‘z ballarini doiraviy diagrammaga o‘tkazayotganida bitta fan balini kiritishni unutdi va rasmdagi diagrammani hosil qildi. U qaysi fanni kiritmagan?

Fanlar	Matematika	Ingliz tili	Biologiya	Fizika
Ballar	40	10	20	35





- 17 Quyida berilgan jadvalning qaysidir ustunidagi ma‘lumotlar doiraviy diagrammaga kiritilmagan. Qaysi turdagi taomning narxi diagrammaga kiritilmagan?

Ovqatlar	Osh	Somsa	Tandir	Qozon kabob	Shashlik
Narxi(ming so‘mda)	50	10	300	100	20





18. DIAGRAMMALAR

- 11) Quyidagi grafikka tengdosh bo'lgan diagrammani ko'rsating.




- 12) Quyidagi grafikka tengdosh bo'lgan diagrammani ko'rsating.




- 13) Jasur mehmonlarga “Milliy kola” ichimligining turli o'lchamlaridan sotib oldi. Quyidagi jadvalda u olgan ichimlik idishlarining o'lchamlari va soni haqida ma'lumotlar berilgan. Javoblarda berilganlardan qaysi biri bu ma'lumotlarning diagrammadagi ko'rinishi bo'la oladi?

O'lchamlari:	Soni:
0,5 litr	4
1 litr	10
1,5 litr	5



19. HARAKATGA DOIR MASALALAR

- 9 Mashina 720 km yo'lining $\frac{1}{3}$ qismini 40 km/soat tezlik bilan, $\frac{1}{4}$ qismini 60 km/soat tezlik bilan, qolgan qismini esa 75 km/soat tezlik bilan yurdi. Mashina jami necha soat yo'l yurgan?
- 10 A va B shaharlar orasidagi masofa 450 km. Bu shaharlardan bir-biriga qarab ikkita mashina yo'lga chiqdi. Bunda, birinchi avtomobilning tezligi 37 km/soat, ikkinchi avtomobilning tezligi esa 44 km/soat. X —shu ikkita avtomobillarning 3 soatdan keyingi, Y esa 4 soatdan keyingi ular orasidagi masofa bo'lsin. $X - Y$ ni toping.
- 11 A , B va C shaharlar bir yo'l ustida joylashgan. Qizil, yashil va ko'k rangli mashinalar tezliklari mos ravishda 40 km/h, 20 km/h va 60 km/h. AB va BC yo'llarning uzunliklari mos ravishda 360 km va 40 km. Mashinalar ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha harakatni bir vaqtda boshladi. Qizil va yashil mashinalar uchrashgan nuqta B shahardan x km masofada, ko'k va yashil mashinalar uchrashgan nuqta B shahardan y km masofada, qizil va ko'k mashinalar uchrashgan nuqta B shahardan z km masofada joylashgan bo'lsin. $z - x - y$ ning qiymatini toping.



- 12 A va B shaharlar orasidagi masofa 300 km. A shahardan B shaharga qarab 8:00 da birinchi sayyoh 50 km/soat tezlik bilan yo'lga chiqdi. Oradan 24 daqiqa o'tib, A shahardan o'sha yo'nalishda 60 km/soat tezlik bilan ikkinchi sayyoh yo'lga chiqdi. Ikkinchi sayyoh birinchi sayyohni quvib o'tganidan qancha vaqt o'tib, birinchi sayyoh B shaharga yetib keladi?
- 13 A shahardan yuk poyezdi 40 km/soat tezlik bilan yo'lga chiqdi. 5 soatdan keyin esa shu shahardan qarama-qarshi yo'nalishda yo'lovchi poyezdi yo'lga chiqdi. Agar yo'lovchi poyezdining tezligi yuk poyezdining tezligidan 20 km/soatga ko'p bo'lsa, necha soatdan keyin ular A shahardan teng uzoqlikda bo'lishadi?
- 14 Oralaridagi masofa 342 km bo'lgan A va B shaharlardan bir-biriga qarab ikkita avtomobil yo'lga chiqdi. 1-avtomobil tezligi 48 km/soat, ikkinchi avtomobil tezligi esa 66 km/soat. Ular 1 soat yo'l yurgandan keyin qolgan masofani bir xil tezlikda yurib, 2 soatdan keyin uchrashishdi. Ikkinchi avtomobilning o'rtacha tezligini toping.